


G'AFUR G'ULOMNING "SHUM BOLA" ASARIDA SHAXS QADRIYATLARI



Eshboyev Sharafiddin Alisher o`g`li
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi
Email: eshboyevsharafiddin01@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`zbek adabiyotining durdonlaridan biri hisoblangan G`afur G`ulomning "Shum bola" asari misolida bolalar badiiy adabiyotida obrazlarning milliy ma`naviy ruhiyati va tabiat, milliy tafakkur talqini ifodalangan bo`lib, unda asardagi badiiy obrazlarning xarakter xususiyatlari tahlil qilinadi va milliy ruhiyatni aks ettiruvchi jihatlari haqida so`z yuritiladi.

Tayanch so`zlar: bolalar adabiyotida badiiy obrazlar, ichki dunyosi, ruhiyat, xarakter xususiyatlari, qahramonlarning ruhiy kechinmalari, tuyg'u, obrazlarning psixologik tahlili.

Annotation: In this article, on the example of Gafur Ghulam's work "Shum bola", which is considered one of the masterpieces of Uzbek literature, the national spiritual spirit and nature of the images in children's fiction, the interpretation of national thinking is expressed, and the character traits of the artistic images in the work are analyzed. and the aspects that reflect the national spirit are discussed.

Key words: artistic images in children's literature, inner world, psyche, character traits, mental experiences of heroes, emotion, psychological analysis of images.

Аннотация: В данной статье на примере произведения Гафура Гулама «Шум бола», которое считается одним из шедевров узбекской литературы, выражен национальный духовный дух и характер образов в детской художественной литературе, трактовка национального мышления, анализируются особенности художественных образов в произведении, обсуждаются аспекты, отражающие национальный дух.

Ключевые слова: художественные образы в детской литературе, внутренний мир, психика, черты характера, душевные переживания героев, эмоция, психологический анализ образов.

G`afur G`ulom o`zining serqirra ijod namunalari, nodir asarlari va sermazmun she`riy satrlari bilan nafaqat o`zbek xalqi, balki butun dunyo xalqlari qalbidan joy ola bilgan noyob adiblardan biridir. Uning barcha ijod namunalari kitobxonlar uchun juda qadri va yuksak ma`naviy-ma`rifiy ruhiyatga ega asarlardir. G`afur G`ulomning barcha asarlari uning mashhurligiga olib kelgan bo`lsa ham, uning ijodida "Shum bola" qissasi alohida o`rin egallaydi.

Shu o`rinda eslatib o`tish lozimki, G`afur G`ulom yoshlik paytlari aynan 1-jahon urushi yillariga to`g`ri keladi. Shuning uchun ham uning deyarli barcha ijodida urushning salbiy oqibatlari o`z aksini topgan. Misol uchun, "Mening o`g`rigina bolam" asarida urush davri tasvirlangan. "Shum bola" asari ham bundan mustasno emas. Bu asarni har qanday sharoitda ham, har qanday davrda ham o`qish orqali inson yoshlikdagi xotiralar ummoniga sho`ng`ib ketadiyu, barcha hayot tashvishlarini ma`lum muddatga bo`lsa-da butunlay unuta oladi.

“Shum bola” asari haqiqiy o`sha davrdagi vaziyatni ochib beruvchi asardir. Adabiyotshunos Nasiba Bozorovaning fikricha ushbu asarda yozuvchi Shum bola tili bilan yuragidagi bor gapni to`kib slogan, Chor Rossiyasining Turkistonni egallaganidan so`ng ijtimoiy tuzum, jamiyat, huquq, siyosat, axloqdagi o`zgarishlarni o`ziga xos tarzda yaratgan¹. Haqiqatdan ham asarda Shum bola tili bilan o`sha davrdagi muhit to`laligicha ochib berilgan.

“Shum bola” asarida boshdan oxir kinoya usuli yetakchilik qiladi. Asar qahramoni shumliklari fondida jamiyatdagi ko`plab illatlar ochib tashlanadi. Jumladan, asar boshida ta’rifi keltirilgan jinnilar tasviri orqali yozuvchi katta ijtimoiy-huquqiy muammoni olib chiqqan². Ya’ni ushbu jinni obrazlari orqali jamiyatdagi illatlar va yomon fazilatlar tasvirlangan.

“Shum bola” qahratonda qulf urib gullagan bodom, Cho’lpon iborasi bilan aytganda, qor qo‘ynidagi lola yanglig‘ kishini hayratga soladi”. Qissa qahramoni Shum bolaning asl ismi butun asar davomida pinhon tutilgan. Asarda shum bola14 yoshli o’smir yigitdir. U yarim yillik sarguzashti davomida hayotning barcha jabhalarini, undagi ikir-chikirlargacha ko‘zdan kechiradi. Asar davomida agar qahramonlar biror bir muammoga yoki tashvishli vaziyatga tushib qolsalar, yozuvchi ularni darrov qutqarib yana sarguzashtga boshlaydi. G‘afur G‘ulom o‘z badiiy niyatini sarguzasht davomida anglatib boradi. Qissadagi real voqeliklar g‘ayrishuuriy tarzda aks ettiriladi. Asarda inson ruhiyat birinchi o`ringa olib chiqilib, aql ikkinchi darajali qurolda aylanadi. Sababi shum bola asari ahramoni aqli bo`lganda edi, u bunday sarguzasht va voqealarga duch kelmasdi va asar shu darajadagi mashhurlikka erishmasdan, oddiy asar bo`lib qolishi mumkin edi. Muallif buni anglagan holda o‘z qahramoniga katta ruhiy erkinlik beradi. Badiiy asarda ruhiy erkinlikni ta’minalash esa badiiylikning muhim asosi sanaladi.

Biz tadqiq etayotgan qissada ruhiy kechinma va tuyg‘u bolada rivojlangan bo‘lib, uni shakllantirish, butun boshli mafkuraga qarshi qo‘yish, aql bilan tizginni boshqarish yozuvchining o‘zida qolgan. Muallif va qahramon o‘rtasidagi aqliy va ruhiy asoslar uyg‘unlashib asar badiiy qimmatini ta’milagan³.

Shum bolaning o’smir yoshda bo‘lishi diqqatga sazovor. Yosh davrlari psixologiyasiga ko‘ra, u o‘tish davrini boshdan kechirayotgan, rivojlanayotgan o‘smirdir. Bu davrda o‘smirning “men”i qaytadan shakllanadi. Uning atrofidagilari, ayniqsa, o‘z-o‘ziga munosabati, qiziqishlari, qadriyatlari yo‘nalishi keskin o‘zgaradi.

Psixologlar o‘rtasida yoshni davlashtirishda tafovutlar bor, lekin barcha psixologlarning tasnifiga ko‘ra ham Shum bola o‘smirdir. Psixolog D. I. Feldshteynning fikricha, shaxs shakllanishi jarayonida ikkita katta taraqqiyot bosqichini bosib o‘tadi. Bu “Men jamiyat ichida” va “Men va jamiyat”, degan pozitsiyalardir. Bu bosqichlarni bosib o‘tish uchun shaxsga kamida besh-olti yil kerak bo‘ladi. Shum bola esa, olti oy ichida bu bosqichlardan o‘tib, o‘z-o‘zini anglashga yetib

¹ G‘afur G‘ulomning badiiy mahorati, Toshkent – TDYU, 2021, 205-bet

² G‘afur G‘ulomning badiiy mahorati, Toshkent – TDYU, 2021, 206-bet,

³ G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 6 tom. –T.: Fan, 1986.(47-49b)

boradi. Bundan anglashiladiki, Shum bola dinamik tarzda rivojlanuvchi xarakter, uning xarakteri dinamikasiga ijtimoiy hayot hodisalari turtki beradi⁴.

Ijod ahli erkinlik kishilari ekanligiga va ijod mahsuli erkinlik mevasi sifatida maydonga kelishiga shubha yo‘q. G‘afur G‘ulomning ong ostida hamisha ruhiy erkinlikka tashnalik yashab kelgan. Hukmron mafkura tazyiqi ostida bu tashnalik yana ham ortgan. Ruhiy tashnalikni ifodalash uchun unga ramziy obraz, aynan Shum bola kerak edi. Muallif unga badiiy, ramziy so‘z vositasida o‘zidagi ruhiy tashnalik, o‘tkir yumorni yuklay olgan. Natijada, Shum bola o‘smirlikdayoq o‘z-o‘zini anglagan, yetarli darajada mukammallikka erishgan badiiy obraz sifatida gavdalangan.

G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasidagi Shum bola va Omon ayricha

xarakterdagi bolalar. Omonga xos xislatlarda xushchaqchaqlik emas, balki birmuncha jiddiylik kuzatiladi. Tursunboy akaning yolg‘iz o‘g‘li bo‘lgan bu bola onasidan erta ajrab, yetimlik azoblarini totib ko‘rgan, hayot ancha ulg‘aytirib qo‘yan o‘spirindir. Buning ustiga u Shum boladan biri-ikkiyosh kattaroq bo‘lib, Omon ko‘rgan bilganning ko‘zicha quruq qo‘l bilan uyga borishdan or qiladi. Shum bolaning falsafasi, fikr-mulohazalari ilk bor uydan chiqib ketgan paytidagidan ancha o‘sganligi, hayot uni ulg‘aytirib qo‘yanligi ma’lum bo‘ladi. Shunga bog‘liq tarzda qissaning uslubidagi epik tasvir yetakchiligi lirizm bilan almashina boradi. Bu esa nosirga xalq turmushining turfa jihatlarini kengroq yoritish, xarakterlar ruhiyatini teranroq ko‘rsatish imkonini beradi.⁵

G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasidagi Omon xayolparast kishilarday mol dunyosi ko‘payib ketishini orzu qiladi, o‘z niyatlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida chor-nochorlikdan ne bir ko‘chalarga kirib chiqmaydi. Poyezdda yurgan kishilarga u judayam havas bilan qaraydi va ularga o`xshab uzoq-uzoqlarga ketgisi va hayotini yaxshilagisi keladi. Bu jihatlardan olib qaraganda, shum bola va Omonning maqsadi bir va bir-biriga tutashdir. Sababi Omon shum bolani ko`rganda quchoqlab, hol-ahvol so`rashadi.

Shum bola bilan Ko‘kterak bozoriga qo‘ylarni haydab ketayotgan Omon kuyalayotgan o‘rtog‘iga qarata: “Ayt, uka! Ancha vaqtidan buyon shunaqa bir rohat, tanish ovoz eshitganim yo‘q”, -deydi. Xuddi ana shu holatda Omonning ruhiy to‘lqinlari yorqinroq ifodasini topgan. Bu o‘spirinning dil torlaridan silqiyotgan dardli iztiroblar, sog‘inch tuyg‘ulari Shum bolaning qo‘shig‘i ohanglariga qo‘shilib kitobxon qalbiga ko‘chsa, bu ikkitaqdirni ruhan birlashtirib yuborsa ajab emas. Zero, sodir bo‘layotgan voqealar qahramonlar taqdirida bejiz ketmaydi. Vaqt o‘tib yoshi ulg‘aygan sari Shum bola ham tobora ko‘proq oila tashvishi, beva onasi va singillarini o‘yaydigan, ularga yordam berish burchi bilan ruhan qiynaladigan bo‘lib qoladi: “Onam sho‘rlikning beva kambag‘al ro‘zg‘origa jodiday jag‘ bilan borishim o‘zimga ham o‘ng‘aysiz, ularning ham menga ko‘zlar uchib turmagan bo‘lsa kerak... Beva onamni, yetimcha singillarimni ko‘p o‘yayman, ichim achishadi. Nega men bunday noshud bola bo‘ldim, kimga bo‘lsa ham shogirdmi, yugurdakmi bo‘lish kerak, biror nima topib onamga qarashib yuborishim kerakku, deyman, O‘kinaman,

⁴ G‘.G‘ulom. Tanlangan asarlar. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.(55-58b)

⁵ Mamajonov S. G‘afur G‘ulom prozasi. –T.: Fan, 1966 –B. 50

o‘z-o‘zimni koyiyman, ba’zan-ba’zan yig‘lab qo‘yaman. Ammo shu holda uyga qaytish qiyin”.⁶

Asardagi qahramonlarning ko‘proq turmushga intilishini tabiiy insoniy xislat deb baholash lozim. Shunga ko‘ra Omonni “boylik orttirish tashvishidagi nazari past, ma’naviy ‘qashshoq obraz” deb o‘ylash ancha biryoqlamalik bo‘lar edi. Uning xarakterida ayrim hollarda kuzatilgan Shum boladan o‘ch olishga intilish esa, bolalarcha kek saqlashdan kelib chiqqan o‘jarlikdan boshqa narsa emasdi. Bolalarning birida oriyat ustunlik qilgan paytda, ikkinchisi esa sal murosaga kelishni istamaydi. Mana shunga o‘xshash o‘sprinlarcha o‘jarlikning o‘zi xarakterlarning ishonchli chiqishini ta’minalash omildir.⁷

“Shum bola” asarini yanada yorqinroq tushunish uchun undagi maqsaadlari bir-biriga tutash bo`lgan ushbu yetim bolalarning o`rtasidagi ziddiyatlarga emas, balki o`sha davrdagi vaziyatga e’tibor qaratish zarur. Ayrim shaxslar Birinchi jahon urushini keltirib chiqargan va buning natijasida oddiy xalq qiyngangan va har xil qiyinchiliklarga, ocharchilikka duch kelgan, ko`pchilik insonlar o`sha paytdagi kasbi orqali pul topib oilasini boqa olmagan. Lekin shunday og`ir vaziyatlar bo`lishiga qaramay odamlardagi insoniylik xislatlari hali ham mavjudligini G`afur G`ulom ushbu asari orqali ifodalamoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. G`afur G`ulomning badiiy mahorati, Toshkent – TDYU, 2021, 205-bet
2. G`afur G`ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 6 tom. –T.: Fan, 1986.(47-49b)
3. G`afur G`ulom. Tanlangan asarlar. –T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.(55-58b)
4. Mamajonov S. G`afur G`ulom prozasi. –T.: Fan, 1966 –B. 50
5. G`afur G`ulom. Shum bola qissasi. – G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2015,
6. Matyoqubova T. G`afur G`ulom badiiyati. - .: Fan va texnologiya, 2006, 17-bet

⁶ G`afur G`ulom. Shum bola qissasi. – G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2015, 115-bet

⁷ Matyoqubova T. G`afur G`ulom badiiyati. - .: Fan va texnologiya, 2006, 17-bet